
QISHLOQ AYOLLARINING IQTISODIY IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MAQSADIDA SEMINAR O'TKAZILMOQDA



Qishloq ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida seminar o'tkazilmoqda

Farg'ona shahridagi "Aziya" mehmonxonasi kichik majlislar zalida oila va xotin-qizlar qumitasi vakillari xamda Jaxon banki xodimlari ishtirokida 2 kunlik mintaqaviy seminar o'z ishini boshladi.

Seminarda Farg'ona viloyatining Furqat, So'x, Yozyovon, Qo'shtepa tumanlari hokim o'rinbosarlari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshliqlari, xotin-qizlar faollari ishtirok etishdi.

Seminarni Respublika kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qumitasi raisi Ozoda Parpiboyeva ochib, seminar ishiga omad tiladi.

- Seminarda barcha ishtirokchilarga qishloq ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida belgilangan loyihani hayotga tadbiiq etish bo'yicha kerakli ma'lumot va maslahatlar berildi. Ushbu tadbirdan olgan barcha ko'nikmalarni amaliyotga tatbiiq etishga astoydil harakat qilamiz, - deydi seminarda ishtirok etgan So'x tumani hokimi urinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Madinaxon Safarova.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-02-02 15:48:45